

## AXBOROT NIMA VA UNING MANBALARI

**Yaxshimuratova Maftuna Ulug‘bek qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 1-kurs talabasi

**Toshtemirov Rustam Abdurashidovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedirasi o‘qituvchisi

[rustambek22091985@gmail.com](mailto:rustambek22091985@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mazkur moqola axborot nimaligi va uning manbalari to‘g‘risidagi konversiyaga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek axborot haqida keng muhokama qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** axborot manbalari, axborot, ijtimoiy siyosiy axborotlar, axborot resurslari.*

## WHAT IS INFORMATION AND ITS RIGHTS

***Annotation.** This article focuses on the conversion of what is information and its sources. It also has a wide discussion about information.*

***Key words.** Information sources, information, social political information information resources.*

## ЧТО ТАКОЕ ИНФОРМАЦИЯ И ЕЕ ИСТОЧНИКИ

***Аннотация.** В этой статье основное внимание уделяется преобразованию информации и ее источникам. Информация также широко обсуждалась.*

*Ключевые слова: источники информации, информация, общественно-политическая информация, информационные ресурсы.*

Axborot (lotincha information-tushuntirish, xabar olish bayon etish,)-biror hodisa , kishi faoliyati yoki muayyan bilim haqidagi ma'lumotlar to'plamini ifodalaydigan fanning umumiy tushunchalaridan biridir. Axborot inson sezgi organlari orqali tashqi dunyodan oladigan xabarlar mazmuni va ma'nosidir. Kundalik hayotda kimningdir manfaatiga mos keluvchi ixtiyoriy ma'lumot yoki xabarlarni axborot deb atashadi. Axborotning turlari ozaro bogliq bolib, bir-birini toldirib boradi[1]. Bu axborotlar ichida iqtisodiy axborot asosiy hisoblanib, ular hajmining 80% ni tashkil qiladi.

Yer yuzida jonli mavjudodlarning paydo bo'lishi bilan birgalikda ularning taraqqiyoti hamda atrof muhit to'g'risidagi, voqea xodisalar to'g'risidagi malumotlarni bilish va ular to'g'risida axborot olish shu axborotlar asosida yashash sharoitlarini belgilash, rivojlanish taraqqiyotini anglash katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari vaqt utishi bilan birgalikda tabiatni insonlar tomonidan o'rganish davomida bu axborotlarga yaratilayotgan va ishlatilayotgan mashinalar, apparatlar, o'lchov asboblari, texnologik jarayonlar haqidagi axborotlar qo'shilib bordi. Axborot odamlar o'rtasida uzatiladigan malumotlar hisoblanib, keyingi vaqtda ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish uchun, hamda yashash sharoitlarini, iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Masalan. Biologik o'simliklarni o'rganish orqali o'simliklarning hayoti to'g'risidagi axborotlarni yig'adi va bu axborotlar asosida o'simliklarni tabiatdagi ro'lini, ularning ko'payishini, insonlar uchun kerakli tomonlarini aniqlaydi. Ikkinchi bir misol. Avtobus xarakatlanish davomida motorning ovozi boshqacha chiqmoqda. Avtobusdagi yulovchilar uchun bu uncha ahamiyatsiz bo'lsa, malakali xaydovchi uchun esa bu axborot hisoblanib va bunga asosan, yani motordan chiqayotgan ovozga qarab motorni xolatini aniqlaydi. Demak axborot degan savolga qisqacha javob berishimiz uchun ikkita obyektga manba va istemolchi orasidagi bog'lanishga

murojaat qilishimiz zarur ekan. Axborot manbaiga tabiiy obyektlar-sayeralar, yulduzlar, insonlar, xayvonlar, o'simliklar, maydon, o'rmonlar - fan va texnikani rivojlantirishdagi ilmiy tajribalar, mashinalar, texnologik jarayonlar kiradi. Axborot istemolchilar ro'yxati ham katta bo'lib unga, insonlar, xayvonlar, o'simliklar, turli hil o'lchov asboblari kiradi. SHuning uchun axborot keng doiradagi tushuncha bo'lib, jamiki obyektlar,mavjudodlar, jarayonlar xaqidagi malumotlarni o'z ichiga oladi. Axborot manbalari va istemolchilarining har hilligi axborot shaklining turli ko'rishda bo'lishiga olib keldi: belgili, matnli va grafik[2].

### **Axborot manbalari.**

Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasi rivojlanishi barcha sohalarni shuningdek, odamlarning dunyoqarashi va ularning ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir o'tkazadi[4]. Bugungi kunda axborot texnologiyalari avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat xavfsizligini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Shu bois O'zbekistonda ham axborot manbalari va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik asoslari yaratildi u davlat axborot infrastrukturasi shakllanishida ijobiy rol o'ynamoqda. Shunga qaramasdan axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatish tizimlaridan foydalanishda himoya va kirishni cheklash vositalaridan minimal holda foydalanilmoqda. Bunda milliy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi ma'lumotlarning chiqib ketishi va davlat axborot maydoniga kirib kelish xavfi o'sib boradi. Zamonaviy axborot bozorini shakllantirishda axborot xavfsizligi, ayniqsa, bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari alohida o'rin egallaydi.

Jamiyatning axborot xavfsizligini ta'minlash davlat va uning vakolatli organlarining asosiy vazifasi bo'lib qolaveradi. Axborot xavfsizligi deganda - shaxs jamiyat va davlatning xavfli axborotlardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Axborot texnologiyalari turli axborot tarqatish manbasi ekan, bunda axborot

xavfsizligini ta'minlash bir tomondan davlatning ushbu sohadagi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lsa, jamiyatda bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash ikkinchi asosiy va muhim davlat ustuvor siyosati hisoblanadi. Bugungi kunda kitob ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda bolalarga Internet global tarmog'i behisob va turli mavzudagi axborotlarni jamiyatga, xususan, bolalarga taqdim etib kelmoqda[4].

Axborot so'zi kutilayotgan yoki bolib otgan voqea, xodisalar togrisidagi ma'lumotlarni bildiradi. Kundalik turmushda har bir mutaxassis turli xil axborotlar bilan ish yuritadi. Axborot tushunchasi bir qancha fanlarda turlicha izohlangan. Masalan: falsafada axborot inson ongiga ta'sir etib, ob'ektiv reallikni aks ettiruvchi va harakatlantiruvchi kategoriya sifatida ishlatiladi. Kibernetika, informatika fanida axborot voqea - xodisa togrisidagi bilimlarni oshirish yoki noaniqlikni kamaytirish mezonini sifatida qollaniladi. Kompyuterlarni ishlatish faoliyatida esa axborotdan boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi ob'ekt sifatida foydalaniladi. Axborot tushunchasi ma'lumot tushunchasi bilan uzviy bog'langan, lekin har qanday ma'lumot axborot bolavermaydi. Masalan: olma desak, bir necha xil ma'noni tushunish mumkin: qizil olma deganda, mevaning ma'lum bir rangi tushuniladi, demak barcha ma'lumotlar axborotga aylanishi uchun voqea - hodisa togrisidagi butun xususiyatlarni ifodalashi lozim[5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarimizning kitob bilan muloqotda bo'lishi, internet tarmog'idan axborot olishi ruhiyatini sog'lom va bunyodkorlikka undovchi axborotlar bilan mustahkamlab borishida davlat xavfli axborotlarning erkin aylanishining oldini olish, bunda esa mavjud qonunchilikni takomillashtirish ta'lim tizimini mustahkamlash, bolalarda erkin fikr yuritish va o'zini qiziqtirgan barcha savollarga javob oladigan muloqot maydonini yanada kengaytirish muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T.: O‘zbekiston, 1995.
3. Toshtemirov.R.A., Category of Justice in the Moral Views of Husain Voiz Koshifi. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2023, 2(12), 76–79. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/2933>
4. O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi qonuni. T.: “Adolat”, 1998.
5. O‘Zme . Birinchi jild. Toshkent 2000.